

PAPER

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA YAGONA VERTIKAL BOSHQARUV MEXANIZMINI YARATISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abdulazizov Zayniddin Zarifjon o'g'li^{1,*}

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati katta konsultanti

*zayniddinabdulazizov11@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tizimida yuqoridan pastgacha uzluksiz, professional darajada ishlaydigan yagona vertikal boshqaruv mexanizmini yaratishning tashkiliy-huquqiy asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot avvalo davlat boshqaruvi nazariyasiga doir konseptual yondashuvlarni, xususan, markazlashgan boshqaruv modeli, vakolatlarning aniq chegaralanishi va institutlararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Maqolada O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida olib borilayotgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi o'rganilib, mavjud tizimda vertikal integratsiyaning kuchayishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy o'zgarishlar, normativ bazani takomillashtirish tamoyillari hamda raqamli boshqaruvning (e-government, monitoring tizimlari, real-time nazorat) ahamiyati tahlil qilinadi. Yuqoridan pastgacha yagona boshqaruv vertikalining davlat siyosatida barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish, rezerv resurslardan oqilona foydalanish hamda mahalliy boshqaruvni samarali koordinatsiya qilishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, huquqiy mexanizmlarni yangilash, institutsional tuzilmani modernizatsiya qilish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Key words: Davlat boshqaruvi, tashkiliy-huquqiy, tizim, yuqoridan pastgacha, modernizatsiya qilish, takomillashtirish, vertikal integratsiya, islohotlar, standartlar va mexanizmlar, norma, amaliyot, real-time nazorat, e-government.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va tub

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

boshqaruv islohotlari davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 15.08.2017 yildagi F-5024-son Farmoyishi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi. Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining (keyingi o'rinlarda Davlat dasturi deb yuritiladi) tasdiqlanishi strategik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini amaliy ro'yobga chiqarishning boshlang'ich mexanizmi bo'ldi. Ushbu islohotlar davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish, boshqaruv jarayonlarining ochiqligi va samaradorligini oshirish, markaziy va mahalliy boshqaruv tuzilmalari o'rtasida izchil va funksional o'zaro bog'liqlikni shakllantirish kabi strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi.

Shu bilan birga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks, tizimli va uzoq muddatli strategik yondashuv asosida tashkil etish talabi ham kun tartibiga qat'iy ravishda kirib keldi. Mamlakatda olib borilayotgan transformatsion jarayonlar, xususan, davlat apparatining qayta tashkil etilishi, vakolatlarining qayta ko'rib chiqilishi, mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yagona, uyg'un va uzluksiz ishlaydigan vertikal boshqaruv tizimini yaratish zaruratini keskin kuchaytirmoqda. Chunki davlat boshqaruvi samaradorligining muhim sharti – barcha darajadagi boshqaruv organlarining yagona boshqaruv jarayoni doirasida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishidir. Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va agentliklar, viloyat va tuman hokimliklari, shuningdek, mahalla

institutining to'laqonli boshqaruv bo'g'ini sifatidagi ishtiroki yagona tizimga ulanmaguncha boshqaruv qarorlarining izchilligi, tezkorligi va sifatini ta'minlash mushkul vazifa hisoblanadi.

Amaldagi tizimda hududlar rivojlanishidagi sezilarli tafovutlar, vakolatlarining takrorlanishi, idoralararo koordinatsiyaning sustligi, turli darajadagi boshqaruv organlarida strategik rejalashtirishning bir xil emasligi hamda kadrlar tizimida professional, xalqaro tajribaga ega kadrlar barcha hududlarda yetishmasligi davlat boshqaruvining barqaror va samarali ishlashiga jiddiy to'siq va kamchilik bo'lmoqda. Bularning barchasi boshqaruv vertikalida uzilishlar paydo bo'lishiga, resurslarning samarasiz taqsimlanishiga, qaror qabul qilish jarayonlarida kechikishlar kuzatilishiga hamda farmon qarorlar ijrosini to'la qonli bajarilishida qiyinchiliklar yuzga kelmoqda. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimida yuqoridan pastgacha yagona va uyg'un vertikal boshqaruv mexanizmini yaratish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqish dolzarb, amaliy va nazariy ahamiyatga ega vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday mexanizm davlat siyosatining izchilligi, boshqaruv qarorlarining ijrosini ta'minlashda tezkorligini oshirish, hududlar taraqqiyotining barqarorligini ta'minlash bilan birga, butun boshqaruv apparatini yagona maqsadlar yo'lida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishga xizmat qiladi. Shuningdek, barcha ijro hokimiyati organlarida qonun hujjatlarni ijrosini ta'minlashda yagona mexanizm va kompleks rivojlanish jarayonlarini kuchaytirish va tezkorligini ta'minlash imkonini beradi.

DAVLAT BOSHQARUVIDA VERTIKAL MEXANIZMNING NAZARIY ASOSLARI

Davlat – o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuchga, ya'ni davlat mexanizmiga egadir. Davlat mexanizmining boshlang'ich va asosiy tarkibiy elementlaridan biri – bu davlat organlaridir. Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'inidir. Ijro hokimiyati organlari – davlatning ijro hokimiyati amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur organlar mazmuni va uslublariga ko'ra, o'ziga xos bo'lgan davlat faoliyatini –

davlat boshqaruvini amalga oshiradilar Davlat boshqaruvi – ijrochilik xususiyatiga ega bo'lgan yagona davlat hokimiyatini amalga oshirish faoliyatining ko'rinishidir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga boshqa barcha huquqiy munosabatlar singari umumiy xususiyatlar xosdir. Davlat boshqaruvi jarayonida turli-tuman munosabatlar vujudga kelib, turli huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Jumladan davlat boshqaruvi sohasidagi aksariyat huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, moliya va boshqa huquq tarmoqlarining normalari asosida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar o'rtasida ma'muriy–huquqiy munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olim X.R.Alimovning fikricha, davlat boshqaruvi funksiyalari va usullari uning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat mazmuni ma'lum bir shaklga, ya'ni tashqi ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Shu sababli, boshqaruv faoliyatining shakli deganda – uning mazmuni tashqi ko'rinishining u yoki bu uslubini tushunish lozim. YU.M.Kozlovning fikricha, boshqaruv faoliyatining shakllari – ijro hokimiyati organlari (mansabdor shaxslar) harakatining tashqi ifodalanishi bo'lib, ularning kompetensiyasi doirasida amalga oshiriladi va ma'lum bir oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur subyektlarning harakatlari – o'zining xususiyati, ahamiyati va yuzaga keltiruvchi oqibatlarga ko'ra turli xildir. Boshqaruv shakllari:

- a) ijro hokimiyatini amalga oshirish shakllari;
- b) ichki apparat xususiyatidagi faoliyat shakllari sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan ma'muriy–huquqiy munosabatlar turli-tuman bo'lib, ularni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash (guruhlash, turlarga bo'lish) mumkin. Huquq nazariyasiga asoslanib, ma'muriy–huquqiy munosabatlarning vazifasi va funksional belgilanishiga qarab, ularni ikkiga bo'lish mumkin: a) tartibga soluvchi munosabatlar, ya'ni huquq subyektlarining mo'tadil xulq-atvori, huquqqa muvofiq xatti-harakatlarining natijasida vujudga keladigan munosabatlar; b) muhofaza qiluvchi munosabatlar, ya'ni huquqbuzarlikni sodir etish va bu uchun davlatning majburlov choralarini qo'llash

zaruriyati asosida vujudga keladigan munosabatlar.

Shuningdek. Vertikal boshqaruv — bu davlat boshqaruvi tizimida markaziy organlardan mahalliy bo'g'inlargacha bo'lgan butun boshqaruv strukturasining yagona maqsad, yagona metodologiya va yagona boshqaruv jarayoni asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan tizimli mexanizmdir. Mazkur model davlat hokimiyatining turli darajalarini o'zaro uzviy bog'langan holda ishlashga majbur etadi va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Vertikal boshqaruvning mazmuni nafaqat yuqoridan pastgacha bo'lgan ma'muriy jarayonni ifodalaydi, balki boshqaruv darajalari o'rtasida funksional integratsiya, huquq va majburiyatlarini aniq taqsimlanishi, boshqaruv jarayoni davomida yagona standartlarning qo'llanishi kabi kompleks tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan vertikal boshqaruv davlatning strategik siyosatini hududlarda izchil va sifatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Vertikal boshqaruv mexanizmi bir nechta asosiy tamoyillarga tayanadi. Jumladan, Uzluksizlik – boshqaruvning barcha bo'g'inlari markaz, viloyat, tuman va mahalla — yagona tizim sifatida o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Uzluksizlik tamoyili boshqaruvning har bir darajasida qabul qilinadigan qarorlar bir-birini to'ldirishini, maqsadlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelmasligini ta'minlaydi. Bu tamoyil mavjud bo'lmagan sharoitda boshqaruvda bo'shliq, vakolatlarining takrorlanishi va mas'uliyatning noaniqligi kabi muammolar kuchayadi.

Shuningdek, Uyg'unlik tamoyili boshqaruv qarorlarining barcha darajada bir xil metodologiya, yagona mezonlar va standartlar asosida ishlab chiqilishi va tatbiq etilishini anglatadi. Normativ–huquqiy hujjatlar, strategik rejalashtirish uslublari, monitoring va baholash mexanizmlarining bir xilligi boshqaruv jarayonlarini tartibga soladi va tizimda noaniqliklar paydo bo'lishining oldini oladi. Shu bilan birgalikda vertikal boshqaruv modelida strategik boshqaruv uchun javob beruvchi markaziy koordinatsiya organining mavjudligi asosiy omillardan biridir. Bu organ davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, mahalliy organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, resurslarni taqsimlaydi hamda tizimda yuzaga

keladigan ziddiyatlarni bartaraf etadi. Yagona markaz boshqaruvga izchillik va intizom bag'ishlaydi. Umuman olganda, vertikal boshqaruv davlat siyosatining markaziy darajada ishlab chiqilib, hududlarda samarali ijro etilishini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida vertikal boshqaruv modeli samarali davlat siyosatini amalga oshirish uchun muhim tizim sifatida shakllangan. Turli davlatlarda ushbu modelning o'ziga xos institutsional ko'rinishlari mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi davlat hokimiyatining barcha darajalarini yagona boshqaruv zanjiriga birlashtirishga qaratilgan. Jumladan, Fransiya Respublikasida ham ushbu turdagi mexanizm mavjud. Ya'ni "Prefektura tizimi" - Fransiya Respublikasi davlat boshqaruvida eng barqaror vertikal modellaridan biri bo'lgan prefektura tizimi markaziy hukumat siyosatini hududlarda izchil amalga oshirishga qaratilgan.

Prefektlar davlatning hududiy vakillari sifatida barcha mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, xavfsizlik, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida davlat siyosatining bir xilda bajarilishini ta'minlaydi. Prefektura tizimi Fransiya Respublikasida vertikal boshqaruvning asosiy garovi hisoblanadi. Shuningdek, Ushbu tizim Fransiya Respublikasida davlat hokimiyatining vertikal, markazlashgan va barqaror modeli sifatida tanilgan. Bundan tashqari ushbu turdagi tizim Janubiy Koreya Respublikasida ham mavjud. Bu tizim "Markaz-hudud integratsiyasi" deb nomlanadi. Koreya Respublikasida vertikal boshqaruv markaziy idoralar bilan mahalliy boshqaruv o'rtasidagi kuchli integratsiya orqali amalga oshiriladi. Hududiy hokimiyatlar markazning aniq strategiyasi asosida ishlaydi, rejalashtirish va resurslarni taqsimlash qat'iy markazlashgan. Shu bilan birga, Koreyada elektron boshqaruv tizimlari vertikal mexanizmning samaradorligini oshirib, markaz va hududlar o'rtasidagi real-time monitoring imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VERTIKAL BOSHQARUV TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI VA HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI ROLI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini isloh qilish jarayoni izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda vertikal boshqaruv tizimini takomillashtirish, markaziy va hududiy organlar o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini aniqlashtirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirgan 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijro hokimiyati tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruvning samaradorligini oshirish hamda hududiy boshqaruv subyektlari o'rtasida mas'uliyatni qayta taqsimlash imkonini berdi. Konstitutsiyada davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik va subsidiyarlik tamoyillarining mustahkamlanishi vertikal boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini kuchaytirdi.

Ayniqsa, mahalla institutining konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishi uni alohida boshqaruv subyekti sifatida e'tirof etish bilan birga, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Vertikal boshqaruv tizimining amaliy faoliyati qator maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi 25.10.2024 yildagi O'RQ-982-son Konstitutsiyaviy Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning yagona

tizimiga rahbarlik qiladigan kollegial organdir. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 02.09.1993 yildagi 913-XII-son Qonun hududiy ijro hokimiyati organlarining vakolatlari va mas'uliyatini belgilab beradi.

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi 08.08.2022 yildagi O'RQ-788-son Qonuni esa davlat boshqaruvida professional, barqaror va meritokratiyaga asoslangan kadrlar tizimini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, strategik rejalashtirishga oid normativ hujjatlar hamda vazirliklar va agentliklar to'g'risidagi nizomlar markaziy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy asosini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtdagi amaldagi tizimda ham bir qancha kamchiliklar mavjud. Idoralararo qonun hujjatlarni ijrosini ta'minlash va ularni to'la qonli tushunib, ularni ijrosini mohiyatini tushinishda kamchiliklar va malakalarni yetishmasligi strategik qarorlarning samarali

ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Strategik rejalashtirishda yagona metodologiyaning yo'qligi hududlar o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Hokimliklarning bilim va malakasi hamda ish tajribasini belgilash bo'yicha aniq talablar va mexanizm mavjud bo'lmaganligi sababli hududlarni rivojlanishida ham bir qancha muammolar keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, mahalla darajasidagi boshqaruv mexanizmlarining davlat tizimi bilan to'liq integratsiyalashmagani vertikal boshqaruvning eng quyi bo'g'inida uzilishlar va qonun hujjatlarni ijrosi aniq hamda to'la qonli ta'minlanmaslik kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Vertikal boshqaruv tizimida markaziy boshqaruv organlari yetakchi o'rin egallaydi. Prezident Administratsiyasi davlat boshqaruvi tizimini umumiy strategik boshqaruvchi organ sifatida barcha vertikal bo'g'inlarning uyg'un faoliyatini ta'minlaydi. U strategik hujjatlarni ishlab chiqish, vazirliklar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda hududlarni rivojlantirish jarayonini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Hukumat va vazirliklar esa qabul qilingan siyosiy qarorlarni amalda bajarish, hududiy organlarga metodik ko'rsatmalar berish va davlat dasturlarini amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Shuningdek, Hududiy boshqaruv tizimi bir necha darajalardan iborat bo'lib, ularning har biri muhim funksional vazifalarni bajaradi. Viloyat hokimlari markaziy siyosatni hududlarda amalga oshiruvchi asosiy ijrochi organlar hisoblanadi. Tuman va shahar boshqaruvi hududiy rivojlanishning asosiy bo'g'ini bo'lib, aynan shu darajada aholi ehtiyojlari bilan bevosita ishlanadi. Shu bilan birga, resurslarning yetishmasligi va hududlararo tafovutlar bu bo'g'inning samaradorligini cheklab kelmoqda. Mahalla boshqaruvi esa 2023 yildan boshlab konstitutsiyaviy institut sifatida mustahkamlandi, biroq uning davlat boshqaruvi tizimi bilan integratsiyasi hali to'liq shakllanmagan. Hududlarni barqaror va kompleks rivojlantirish uchun yagona vertikal boshqaruv modelini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu modelda Prezident Administratsiyasi markaziy koordinatsiya organi sifatida faoliyat yuritadi, Hukumat va vazirliklar strategik

boshqaruvni amalga oshiradi, viloyat hokimliklari operativ boshqaruvni ta'minlaydi, tuman va shahar bo'g'ini ijro va nazorat funksiyalarini bajaradi, mahalla esa jamoatchilik ishtirokining asosiy instituti sifatida qatnashadi. Bunday tizimning samaradorligi hududlar uchun yagona natija-indikatorlar tizimini joriy etish orqali oshirilishi mumkin. Iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik faolligi, infratuzilma rivoji, ijtimoiy ko'rsatkichlar va boshqaruv samaradorligi ana shunday indikatorlar qatoriga kiradi.

XULOSA

Zamonaviy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, vertikal boshqaruv modeli boshqaruvda intizom, izchillik va strategik yondashuvni ta'minlaydi. Bu tizim orqali hozirgi vaqtdagi amaldagi tizimda kamchiliklarni bartaraf qilishga imkoniyat yaratib beradi. Idoralararo qonun hujjatlarni ijrosini ta'minlash va ularni to'la qonli tushunib, ularni ijrosini mohiyatini tushinishda kamchiliklar va malakalarni yetishmasligi strategik qarorlarning samarali ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Strategik rejalashtirishda yagona metodologiyaning yo'qligi hududlar o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, hokimliklar va davlat xizmatchilarining bilim va malakasi hamda ish tajribasini belgilash bo'yicha aniq talablar va mexanizm mavjud bo'lmaganligi sababli hududlarni rivojlanishida ham bir qancha muammolar keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, mahalla darajasidagi boshqaruv mexanizmlarining davlat tizimi bilan to'liq integratsiyalashmagani vertikal boshqaruvning eng quyi bo'g'inida uzilishlar va qonun hujjatlarni ijrosi aniq hamda to'la qonli ta'minlanmaslik kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. O'zbekistonda vertikal boshqaruv tizimini yagona metodologiya asosida takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi vakolatlarni optimallashtirish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, mahalla institutini vertikal boshqaruvning to'laqonli bo'g'iniga aylantirish hamda strategik rejalashtirish, monitoring va baholashning yagona tizimini yaratish respublika boshqaruvi sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 30 aprel (yangi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 15.08.2017 yildagi F-5024-son Farmoyishi.
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2024 yil 25 oktyabr, O'RQ-982-son.
4. O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuni. 1993 yil 2 sentyabr, 913-XII-son.
5. O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonuni. 2022 yil 8 avgust, O'RQ-788-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari va qarorlari (2017–2024 yillar).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.

II. MONOGRAFIYALAR VA O'QUV ADABIYOTLARI

8. Xodjayev A., Karimov B. Davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
9. Administrativnoye pravo Respubliki Uzbekistan // Avt. kollektiv: X.R.Alimov, L.I.Solovyeva i dr./ – T.: “Adolat”, 1999. 173–174-b.lar
10. Ismoilov B. “O'zbekistonda davlat boshqaruvinii modernizatsiya qilish masalalari.” Davlat va huquq, 2022, №4.
11. Rahmonov O. “Mahalliy boshqaruv va markazlashgan davlat siyosati o'rtasidagi

muvozanat.” Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2023, №2.

12. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления. – Москва: Омега-Л, 2018.
13. Козбаненко В.А. Государственное управление: основы теории и практики. – Москва: Юрайт, 2019.
14. Денисов Ю.А. Система государственного управления: вертикаль и координация. – Санкт-Петербург: Питер, 2020.
15. Hood C. The Art of the State: Culture, Rhetoric, and Public Management. – Oxford University Press, 2019.
16. Pollitt C., Bouckaert G. Public Management Reform: A Comparative Analysis. – Oxford University Press, 2021.

III. ILMIY MAQOLALAR VA TAHLILIY ISHLAR

17. Osborne S. “Public Governance and Public Services Reform.” Public Management Review, 2018.
18. Peters B.G. “The Politics of Bureaucracy and Vertical Governance.” Routledge Handbook of Public Administration, 2020.
19. Kim P.S. “Central–Local Government Relations and Digital Governance in South Korea.” Asian Journal of Public Administration, 2021.
20. Chevallier J. “Le système préfectoral en France: continuité et modernisation.” Revue française d’administration publique, 2019.

VI. ELEKTRON SAYTKAR.

21. www.president.uz.
22. www.lex.uz.
23. parliament.gov.uz.